

## **ISPAN GAZETASIDA AXBORIY JANRLAR TILI VA USLUBI**

**Maxfuza Ravshanovna ARTIKOVA**

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: [martikova@gmail.com](mailto:martikova@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ispan gazetasi matnlarida til birliklarining qo'llanishi bilan bog'liq o'rinlar axboriy janr doirasida aniqlangan, mediamatnning jamiyatda kechayotgan voqea-hodisalar asosida yaratilishi, inson ongi, madaniyatiga ta'sir etishi, jamiyatda mavjud til me'yorlariga ta'sir etishi masalalari yoritilgan.

Shuningdek, Ispaniyaning nufuzli, rasmiy nashrlarining axboriy janri tili va uslubi, mazkur matnlarning lisoniy o'ziga xosligi ko'p sonli misollar yordamida diskursiv metodologiya asosida tahlil qilinib, ijtimoiy voqelik axborot maydonidagi ma'lumotlarni qisqartirishni talab etishi va bunday vazifa qisqartma (abbreviatura)lar zimmasiga tushishi haqida xulosaga kelingan.

**Tayanch so'zlar:** til, uslub, gazeta, yangilik, janr, qisqartmalar.

## **ЯЗЫК И СТИЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ЖАНРОВ В ИСПАНСКОЙ ГАЗЕТЕ**

**Махфуза Равшановна АРТИКОВА**

независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

e-mail: [martikova@gmail.com](mailto:martikova@gmail.com)

### **Аннотация**

В данной статье определены места, связанные с использованием языковых единиц в испанских газетных текстах в рамках информационного жанра, создание медиатекста на основе событий, происходящих в обществе, влияние на человеческое сознание, культуру, существующие языковые нормы в обществе определяют актуальность проблемы.

Также в статье на основе дискурсивной методологии с помощью многочисленных примеров анализируются язык и стиль информационного жанра престижных, официальных изданий Испании, языковая специфика этих текстов, делается вывод о том, что социальная реальность требует сокращения информации в информационном пространстве, и такая задача ложится на сокращения (аббревиатуры).

**Ключевые слова:** язык, стиль, газета, новости, жанр, аббревиатуры.

Ispan tilining Yevropa qit'asidagi o'rni va ahamiyati ham yuqoridir. Zero, XVI–XVII asrlarda ispan tili adabiyot orqali Yevropa madaniyati tarixiga kuchli ta'sir etdi. Mazkur davrda bo'lib o'tgan siyosiy va harbiy harakatlar ispan tili va

adabiyotining Yevropa qit'asida keng tarqalishiga sabab bo'ldi. O'rnatilgan diplomatik munosabatlar esa boshqa xalqlarning ispan tili va adabiyoti orqali ispan an'analari, urf-odatlariga ham qiziqishini orttirdi [2, 21].

Bilamizki, til birligi davlatning yaxlitligini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Kastiliya ispanchasi xalqaro maydonda ham, Iiberiya yarim orolida ham davlat ehtiyojlariga muvaffaqiyatli xizmat qiladi. Shunday bo'lsa-da, kastelyano (ispan) tilini o'rganish mamlakatda majburiy hisoblanib, hatto dominant til bo'lmagan hududlarda ham rasmiy maqomga ega [1]. Bunda ommaviy axborot vositalarining, ayniqsa, matbuotning o'rni beqiyos.

Ispan tilidagi variantlilik sabab matbuot janrlarini ajratishda ham turlicha qarashlar mavjud. Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda matbuot janrlari umumiy tarzda uch guruhga bo'lingan: axboriy janrlar, tahliliy janrlar hamda fikr janrlari.

Ispan matbuoti tadqiqotchilari axboriy janr tushunchasini ko'p qirrali hodisa sifatida ko'rishadi. Axboriy janr bir vaqtning o'zida axborot turi, uslubiy qolip hamda mediadagi bir turdagi materiallarni birlashtiruvchi konstruksiya bo'lib, Salaverria ta'kidlaganidek, axboriy janrlar axborotni aniq tuzilma, uslub va maqsad bilan taqdim etish mexanizmidir. Bunga ko'ra, matbuotda axboriy janr auditoriyani jalb qilish, yangi ma'lumotlarni uzatish, tahlil qilish yoki baholash kabi aniq vazifani bajaradi [4, 58].

Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlari olimlari ispan tilidagi davriy nashrlarning janrlarini tasniflashga urinayotganda har bir janr guruhiga xos bo'lgan umumiy vazifalarni hisobga olishadi. Asosiy e'tibor yangiliklarga oid ma'lumotlarni uzatish, shuningdek, fikrlarni talqin qilish va ifodalash funksiyalariga qaratilgan. Xususan, jurnalistikaning "lotin modeli"da ko'proq an'anaviy uch qismli tasnif bo'linishi qo'llaniladi [3; 324], ya'ni janrlar davriy matbuot nashrlarida uch guruhga: géneros informativos (axboriy janrlar), tahliliy janrlar (géneros interpretativos) va fikr janrlari (géneros de opinión)ga ajratiladi. Yuqoridagi uch guruhni Miriam Rodrigues Betankur ispan tilidagi jurnalistikaning "katta makro janrlari" sifatida ta'riflaydi [5; 14].

Ispaniya matbuotida sport tadbirlari, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va reklamalarga katta e'tibor berilishini hisobga olsak, ispan tilidagi jurnalistika janr tizimining milliy o'ziga xosligini gazeta va jurnal janrlarining asosiy guruhlarining boshqa tasniflarida ham ko'rish mumkin.

Shuni alohida qayd etish lozimki, davriy nashrlar janrlari quyidagi vazifalarni, ya'ni xabarlarini auditoriyaga tezkor yetkazish; uni voqeaga u yoki bu hissiy munosabatda bo'lishiga olib kelish, ma'lum bir fikrning shakllanishiga ta'sir qilish, uni harakatga undash, biron-bir fakt, harakat, voqeaga qiziqtirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Ispaniya davriy matbuotining janr xususiyatlari uning mazmuni, maqsad va vazifalariga muvofiq rivojlandi.

“El País”, “El Mundo”, “ABC” kabi Ispaniyaning eng nomdor va rasmiy gazetalari matnini kuzatish natijasida ispan gazetasidan keng o'rin egallagan janr bu – yangilik ekani ma'lum bo'ldi. Yangilik janri voqea yoki holat haqida aniq, qisqa, xolis ma'lumot berishi bilan ajralib turadi.

Yangilik janrining tili va uslubi haqida so'z borganda uning asosan bosh sahifa va asosiy ruknlarda joylashtirilishini, havolalar, dalillar bilan boyitilishini qayd etish lozim bo'ladi. Masalan, *“Estados Unidos intenta ampliar el alcance del alto el fuego entre Rusia y Ucrania. Culmina en Riad una cita de más de 12 horas entre la delegación de la Casa Blanca con Moscú para fijar un alto el fuego parcial sin que trasciendan detalles sobre la misma”* (“El país”, 24.03.2025). Mazkur axborotda AQSHning Rossiya hamda Ukraina orasidagi o't ochishni to'xtatish bo'yicha kelishuvlarning yanada kengaytirishga harakat qilayotgani keltiriladi. Yangilikning ishonchliligini yanada oshirish hamda dalillash maqsadida Riyod shahrida naqd 12 soatlik muzokaralar bo'lib o'tgani, muzokaralar aynan Oq Uy va Moskva o'rtasida bo'lib o'tgani aytiladi. Axborotni to'ldirish orqali yangilikda jurnalist aralashuvisiz sof axborot berilgan.

Quyidagi misolda esa yangilikda o'xshatish, taqqoslash ham keltiriladi. Ya'ni, yangilikning ta'sirchanligini dalillar orqali ham oshirilganining ko'rish mumkin: *“Las endiabladas mayorías llevan a Congreso y Senado a un choque*

*institucional inédito. La gestión de los partidos del equilibrio de fuerzas plenos y procesos parlamentarios sin precedentes. La Cámara alta inicia este lunes las comparecencias de la comisión de investigación por la dana de Valencia*” (“El país”, 24.03.2025). Yuqorida keltirilgan misolda “Las endiabladas mayorías” iborasi bilan ko‘pchilikni tashkil etgan g‘oyaviy tarfkashlarga “iblis” ta’rifi berilgan. Bunda “iblis” so‘zi salbiy ma’noda emas, balki ko‘p ishga qodir ma’nosida kelgani ham ispan lingvomadaniyatidagi o‘ziga xoslikni ifoda etadi. Yuqori Palata – Senatning dushanba kuni Valensiya voqeasi (mual. Valensiyada bo‘lib o‘tgan tabiiy ofat natijasidagi zarar va bunda davlatning o‘z vaqtida harakat boshlamaganiga ishora qilinadi) bo‘yicha taraflarni eshitishni boshlashi keltirilar ekan, “Valensiya voqeasi” sifatida keltirilgan pretsedent hodisa o‘quvchiga ochiqdanmaydi. Yangilik matnidagi mazkur ma’noga tushunish o‘quvchidan qo‘shimcha ijtimoiy bilimlarni talab qiladi.

*“El Papa vuelve a un Vaticano muy preparado para su convalecencia. El equipo de gobierno nombrado por Francisco en los últimos años asume un rol determinante”* (“El mundo”, 24.03.2025). Mazkur yangilikda Rim Papasining salomatligi yomonlashgani bilan bog‘liq axborot berilgan bo‘lib, unda Papaning Vatikanga salomatligini yaxshilash uchun qaytayotgani aytiladi. Yangilikdagi birinchi gapda *“un Vaticano muy preparado”* – “juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan Vatikanga”, deya ta’rif berilib, Vatikan toponimidan avval “un” noaniq artikli qo‘yilyapti. Mazkur noaniq artikl gapda qochirim uchun qo‘llanilgan. Undan tashqari “tuzalmoq” fe’li sifatida neytral ma’no kasb etadigan *“recuperación”* fe’li emas, balki badiiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan *“convalecencia”* fe’li qo‘llanilgan. Bu orqali jurnalist o‘z fikrini yangilikka qo‘shmagan bo‘lsa ham, so‘zlarning ta’siri orqali voqeaga munosabatini sezdirib ketgan. Yangilikdagi ikkinchi gapda “Fransisko tomonidan tayinlangan amaldorlar jamoasi oxirgi yillarda katta rol o‘ynayotgani” qayd etiladi. Bu yerda Rim Papasining ismigena keltirilgan bo‘lib, yangilikda kinoya qo‘llanmoqda, ya’ni Papaning oxirgi yillarda siyosatga aralashuvi, hukumat organlariga “o‘zining odamlarini” joylashtirishiga *“gobierno nombrado por Francisco”* iborasi yordamida ishora qilinmoqda.

Ayrim yangiliklar tili tamomila neytral soʻzlardan, nomlardan iborat boʻladi. Jumladan, quyidagi yangilikda Venesuela hamda AQSH prezidentlari Maduro va Tramp oʻrtasidagi munosabatlar keltirilgan boʻlib, unda tasviriy ifodalardan foydalanilmagan: *“Maduro vuelve a aceptar vuelos de deportación tras las presiones de la Administración Trump. Maduro ha tomado la decisión como respuesta a la decisión de Trump de acabar con las concesiones a que la petrolera estadounidense Chevron siguiera operando con el petróleo venezolano, una de sus grandes fuentes de ingresos”* (“ABC”, 24.03.2025). Gapdagi “Tomar la decisión” iborasi ham taʼsirchan hisoblanmaydi va “qaror qabul qilish” maʼnosini beradi.

Ispan matbuotida axboriy janr maʼlum bir voqea, holat yoki jarayon haqida tezkor, qisqa, aniq va nisbatan xolis axborot yetkazadi. Uning til va uslub xususiyati shu mezonlar asosida shakllanadi. Axboriy janrlar oʻz mazmunida maʼlumotni tanlab, saralab, eng muhim tarafga eʼtibor qaratish orqali asl voqelikni aks ettirishda imkon qadar oʻrinli va aniqlikka amal qilgan holda til birliklarini tanlaydi. Masalan: *“La ruta de bares (y hamburgueserías) de la Princesa Leonor en Zaragoza, como una cadete más. Una peculiar felicitación de cumpleaños, una hamburguesa en su honor, un pequeño incidente y mucho orgullo entre los maños ante la presencia de la Heredera en las calles de la capital aragonesa”*. (“El mundo”, 24.12.2023). Ispaniya malikasi, taxt vorisi (la Heredera) Leonorning oddiy kursantlar (como una cadete) kabi Saragosadagi bar va gamburgerxonalarda (bares y hamburgueserías) boʻlishi, aragonlarning qalbini faxrga toʻldirgani (mucho orgullo) aytiladi. Mazkur yangilikda Leonorning taxt vorisi ekani va oddiy xalq orasida koʻrinishi, bu oddiy xalqqa gʻurur berishi quyidagi soʻzlarni tanlab olish orqali eʼtirof etiladi: *Princesa, la Heredera, un pequeño incidente y mucho orgullo, en las calles de la capital aragonesa*.

Siyosiy xabarlarda, ayniqsa, toponimlar (EE.UU., Ucrania, Rusia), aniq faktlar (ministro de Defensa de Ucrania) va baʼzi hollarda kinoya soʻzlar (“productivas”, “paz justa y duradera”, “realidad”) ishlatiladi: *“EE.UU. y Ucrania celebran conversaciones “productivas” antes de los encuentros con Rusia. El ministro de Defensa de Ucrania asegura que trabajan para hacer de su*

*objetivo de una “paz justa y duradera” una “realidad”* (“ABC”, 24.03.2025) ishlatilgan. Mazkur gapda “productivas” (samarali), “paz justa y duradera” (odil va mustahkam tinchlik), “realidad” (reallik) kabi soʻzlar qoʻsh tirnoqqa olinishi bilan kinoya sifatida qoʻllaniladi hamda D. Tramp va V. Zelenskiy oʻrtasida boʻlib oʻtgan muzokaralardagi AQSH munosabatiga ishora qilinadi.

Ijtimoiy mavzulardagi xabarlar ham aniqlikka ega. Jumladan, quyidagi yangilikda *“Dos migrantes ausentes y un patrón bajo sospecha. La desaparición de dos temporeros cuando trabajaban para el mismo jefe en la recogida de la aceituna en Jaén sigue sin resolverse 12 años después del primer caso”* (“El país”, 24.03.2024) deyiladi. Undagi *Dos migrantes* (ikki muhojir), *un patrón* (bir xoʻjayin), *temporeros* (mavsumiy ishchilar), *en Jaén* (Xaen shahrida), *recogida de la aceituna* (zaytun terimi vaqtida) kabi soʻzlar yangilikning aniqligini taʼminlagan.

Shuningdek, yangilik matnlarida raqamlar ham axborotning aniqligi hamda taʼsirchanligiga taʼsir koʻrsatadi. Masalan, 2019-yilda boshlangan Covid-19 virusi va butun dunyoda sodir boʻlgan pandemiya sharoitining jahonga keltirgan zarari haqidagi axborotda quyidagi raqamlar keltiriladi: *“17’802.251 casos y 683.892 muertes acumula el mundo por la covid-19. La proporción de personas recuperadas de la covid-19 sigue en alza, hoy llega al 62.8% del total de los infectados, que equivale a 11’191.572 pacientes dados de alta”* (“El mundo”, 30.11.2023). Jumladan, 18 millionga yaqin kishilarning virusga chalingani, ulardan 683 mingdan ortigʻi vafot etgani, jami virus yuqtirganlarning 62.8%i tuzalgani keltirilar ekan, mazkur raqamlar va foizlar kishilarga jurnalist yetkazmoqchi boʻlgan axborotlarning oʻquvchiga aniq yetib borishi va raqamlarning ongga taʼsirida muhim rol oʻynaydi.

Axboriy janrning yana bir xususiyati unda siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarga oid xabarlarni yoritishda qisqatmalar, sohaviy terminlar va tushunchalar, toponimlar, anglitsizmlar voqelanadi.

Masalan, qisqartmalardan davlat nomlari: *los EE.UU.* – AQSH, *los EAU* – BAA, partiyalar nomlari: *el PP* – Xalq partiyasi, *el PSOE* – Sotsial ishchilar partiyasi, xalqaro tashkilotlar nomlari: *la ONU* – BMT, *la UE* – YEI va h.k.

Shuningdek, yangiliklar janrida o‘zlashma so‘zlar, ayniqsa, anglitsizmlardan keng foydalaniladi. Jumladan, *texnologik sohaga* oid matnlarda Smartphone, Software, App, Email, Tablet, Blog, Laptop, Streaming, Hardware, Chat, Firewall, Password, Link, Bluetooth, GPS, webcam, Hacker, clic kabi anglitsizmlar, *gastronomik sohaga* oid matnlarda esa Fast food, Muffin, Hamburguesa, Hot dog, Snack, Brunch, Smoothie, Sandwich, Cheesecake, Cupcake singari anglitsizmlar, *sayohatga oid* matnlarda Check-in, Check-out, All-inclusive, Backpacking, Booking, Travel agency, Duty-free, Selfie, Voucher, Transfer, City tour, Tour operator, Upgrade, Resort, Hostel kabi anglitsizmlar; *sportga oid* matnlarda esa Golf, Cycling, Fitness, Fitness center, Surf, Water polo, Skateboard, Cheerleader, Coaching, Biking, Fitness tracker, Snorkeling, Downhill, Skydiving, Yoga, Water polo, Bodybuilding, Sprint kabi ingliz tilidan o‘zlashmalar; musiqaga doir gazeta matnlarida Rock, Soundtrack, Pop, Rhythm, Rap, Groove, Hip-hop, DJ, Jazz, Remix, Pop star, Beatbox, Backstage, Playlist, Acoustic, Concert, Live kabi anglitsizmlar keng qo‘llaniladi. Undan tashqari, ispan tiliga chuqur o‘zlashib, OAV tilida ham doimiy namoyon bo‘ladigan bir qator anglitsizmlar borki, ispan tilida mazkur o‘zlashmalarning variantlarini topishga harakat qilinmaydi va u Ispan tili qirollik akademiyasi tomonidan ham lug‘atga kiritilgan. Bunday anglitsizmlarga quyidagilar kiradi: jeans, fashion, hoodie, marketing, CEO, startup, branding, networking, show, casting, blockbuster, fan, detox, DNA, gadget, podcast, master class, feedback, portfolio, bonus, influencer, streaming, vlog, meme, like, hashtag, follow, tweet, post, story, GPS, penthouse, loft, skyline, open space, plot, remake, screening, teaser, box office va h.k.

Ispan gazetalarida *antroponimlarni* qo‘llashda o‘ziga xoslik mavjud bo‘lib, kishilar ism hamda sharifi ispan tilidagi o‘qilishiga qarab emas, balki mazkur kishi mansub bo‘lgan millat yoki hudud tili, shevasidagi, ya’ni originalidagi kabi keltiriladi. Masalan: inglizchadan *Elon Musk*, *Agatha Christie*, *Donald Trump*,

nemischadan *Friedrich Merz*, *Baden-Württemberg*, fransuzchadan *Kaoutar Harchi*, *Jean-Luc Mélenchon*, polyakchadan *Remigiusz Rzyński*, *Martin Dvorák*, katalonchadan *Pujol*, galyego tilidan *María Xosé Vega Buján*, euskeradan *Vanessa Goikoetxea* va h.k.

Jo'g'rofiy makon hamda joy nomlarini aks ettiradigan *toponimlar* ispan gazetalari matnida turli xildagi fonetik shaklga ega tarzda beriladi. Jumladan, davlatlar nomlarida *Uzbekistán*, *Estados Unidos*, *Alemania*, *Francia*, *Polonia*, *República Checa*, *Corea del Sur*, *Japón*, *China*, *Vietnam*, *Malasia*, *Camboya*, *Inglaterra* kabi ispan tiliga xos so'zlar qabul qilingan bo'lsa, shaharlar, ayrim tumanlar yoki ko'chalar nomiga doir toponimlarda mazkur hududga oid til yoki shevaning fonetik xususiyatlari aks etadi. Masalan, *De Gaulle* (fransuz tilidan), *València* (valensiano shevasidan), *Touro*, *A Coruña* (galyego tilidan), *Itzulia* (euskeradan tilidan).

Ispan gazetalari matnida qo'llaniladigan o'ziga xos til birliklaridan yana biri realiyalar hisoblanadi. Realialarni boshqa tilga tarjima qilish imkonsiz bo'lib, unga ta'rif berish yoki realiya ifoda etgan obyekt yohud jarayonga o'xshash bo'lgan so'zlarni keltirish mumkin. Ammo, bu turdagi til birliklari to'g'ridan-to'g'ri boshqa tillarga tarjima qilinmaydi. Realialar ispan gazetalari matnida odatda ijtimoiy-madaniy xabarlar matnlariga kiritiladi. Ispan matbuotida ko'p uchraydigan realiyalar qatoriga merienda (*mual: tushdan keyingi tamaddi*), desvelado/a (*mual: uyqusiz qolib bo'shashib yurgan odamlarga erkak yoki ayol jinsida aytiladi*), estrenar (*mual: bu so'z kinoga nisbatan premyera deb ishlatilishi mumkin, ammo ispan tilida mazkur realiya nafaqat kinoga, balki teatrga, san'at ko'rgazmalarining ochilishiga, modalar namoyishiga nisbatan ham qo'llaniladi*), siesta (*mual: Ispaniya aholisining an'analaridan hisoblanib, tushlikdan keyingi dam olish yoki uyqu vaqtini bildiradi. Arab Ispaniyasi davridan qolgan bu udum hozirgi kungacha saqlanib qolgan hamda ispan milliy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi*) kabilar kiradi.

Demak, ispan tili butun dunyoda ispan tilida so'zlashuvchi kishilar uchun ommaviy kommunikatsiya vositasi bo'lib, turli ijtimoiy institutlar, tashkilotlar va



jarayonlar bilan bog‘liq atamalar, so‘z birikmalarining keng maydonini tashkil etadi. Ijtimoiy voqelik axborot maydonidagi ma’lumotlarni qisqartirishni talab etgani bois bunday vazifa qisqartma (abbreviatura)lar zimmasiga tushadi. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy-madaniy institut sifatida qabul qilgan qisqartmalar ma’lum “nutqiy me’yorlar”ni shakllantirishga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Barbería J.L. La ideología de las lenguas. Available at: [https://elpais.com/politica/2015/09/21/actualidad/1442850079\\_347592.html](https://elpais.com/politica/2015/09/21/actualidad/1442850079_347592.html)
2. Carlos Clavería Lizana. España en Europa. – Madrid, 2010.
3. Rodríguez Betancourt, Miriam. Géneros periodísticos: para arropar su hibridez // Estudios sobre el Mensaje Periodístico. – Vol. 10., 2004.
4. Salaverría R. Redacción periodística en internet: género, estilo y tecnología. – Barcelona: Ariel, 2005.
5. Yanes Mesa, Rafael. Géneros periodísticos y géneros anexos. – Madrid: Fragua, 2004;
6. “El país” gazetasi.
7. “El mundo” gazetasi.
8. “ABC” gazetasi.